Islom banklarining ishlash tamoillari

Bekmurodov Abbos Amiriddinovich
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti
“Bank ishi” kafedrasi assistenti

Xolmo'minov Islom
Bank ishi 420 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy iqtisodiyotda islom moliyasi tushunchasi va islom moliyasiga oid iboralar. Islom moliyasining O‘zbekistonda tutgan o‘rni va tamoyillari. Islom banklarining paydo bo‘lishi va tijorat banklaridan farqi. Islom moliyasiga oid tashkilotlar hamda ularning ishlash prinsipi haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Islom moliyasi, islomiy banklar, murobaha, takaful, mushoraka, mudoraba, IsDB, ICD, ITFC, IRTI.

Annotation: In this scientific article, the concept of Islamic finance in the modern economy and expressions related to Islamic finance. The role and principles of Islamic finance in Uzbekistan. The emergence of Islamic banks and their difference from commercial banks. Organizations related to Islamic finance and their working principles are explained.

Keywords: Islamic Finance, Islamic Banks, Murabaha, Takaful, Musharaka, Mudarabah, IsDB, ICD, ITFC, IRTI.

Islomiy banklar an’anaviy banklar singari mijozlardan omonatlar qabul qiladi va bu ularning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Islom foizlar hisoblash va olishni - riboni man etgani uchun islomiy banklar o‘z mijozlariga islomiy me’yorlarga muvofiq keladigan bank xizmati ko‘rsatishlari lozim bo‘ladi. Bank o‘z xizmatlarini taklif etguniga qadar rahbariyat, eng avvalo, islomiy huquqning mutlaq va bosh manbalari Qur’on va hadislarga murojaat etishlari kerak.

Biznesga oid barcha tamoyil va taqiqlar, albatta, diqqat bilan zfganilishi lozim. Alloh taolo Qur’onning ko‘plab oyatlarida poraxo‘rlikni taqiqlagan va ishonch, adolat ila tarozi va o‘lchovdan foydalanishga chaqirgan. Bundan tashqari Qur’onda tomonlar o‘rtasidagi kelishuv yozma tartibda guvoxdar ishtirokida rasmiylashtirilishi, tomonlarning majburiyatlari va kafolatlari

belgilangan bo‘lishi lozimligi aytib o‘tilgan. Hadislarda oldi-sotdn masalasida bir kancha yechimlar ko‘rsatib berilgan. Ba’zi hadislarda islomiy bitimlarning mana shunday, ya’ni salam (oldi-sotdi shartnomasi bo‘lib, tovarlar yetkazilish mudsati uzaytirilishi mumkin; tovarning qiymati oldindan to‘lanadi va taraflar kelishgan muddatda yetkazib beriladi), yollash, havola (veksel, tilxat), qarzlar, kreditlarni so‘ndirish, aktivlarni muzlatish, bankrotlik, sherikchilik, ijara, tadbirkorlikning shartlari va guvohnomasi tomonlari ko‘rsatib o‘tilgan. Qur’onda moliyaviy faoliyatga doir bir kancha oyatlar va hadislar kelganiga qaramay, zamonaviy bank tizimida ta’kidlangap tamoyillarni ko‘llash murakkabdek tuyuladi.

Demak, islomiy olim va hukukshunoslar (islom konunchiligi sohasi ekspertlari) zimmalariga mas’uliyatni olgan holda shariat qoidalarini buzmaydigan va joriy bank qonunchiligiga muvofiq keladigan biznes yuritish tamoyillarini o‘rnatishlari kerak bo‘ladi.

Islomiy banklar xizmat ko‘rsatish usullari tarkibini tashkil etadigan islomiy tamoyillarni ifodalovchi turli atamalardan foydalanadilar. Ayrim islomiy banklarda arab atamalaridan, boshqalarida arab va ingliz tili aralashmasidan va yana birlarida bank faoliyati amalga oshirilgan mamlakatning mahalliy tilidan foydalanilayotganini ko‘rish mumkin. Shariat tamoyillari asosida islomiy bank ishi yuritayotgan mamlakatlar to‘g‘risida keyingi boblarda tanishib chiqamiz.

Qanday atamalardan foydalanishidan qat’i nazar, islomiy bank tizimidagi shariat tamoyillarini 5 toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifa foyda va zararlarni taqsimlash tamoyili, ikkinchisi oldi-sotdi tamoyili, uchinchi toifa o‘z ichiga yig‘im va komissiyalarni oladi. To‘rtinchi toifa bepul xizmat tamoyillarini, beshinchisi esa yordamchi tamoyillarni bayon etib beradi. Quyidagi tamoyillar aksariyat islomiy banklar tomonidan ko‘p holatlarda amaliyotda ishlatiladi: muzoraba, mushoraka, murobaha, ijara, ijara val-iqtino, muajjal bay, istisno, qarzi hasan, vadia, rahn. Sanab o‘tilganlardan tashqari islomiy moliyalarning boshqa tamoyillaridan ham amaliyotda foydalaniladi. Masalan, Malayziyada

dayn bay, ijara tumma bay, vakolat, havola, ujr va vadia yad damana tamoyillari tarqalgan.

Eronda ham bir talay qo‘shimcha tamoyillar: joala, mozaraax, mosakat kabi tamoyillar kiritilgan. Bunday kup mikdordagi shariat tamoyillarining ishlatilishi ba’zi taxminlarga sabab bo‘ladi va ushbular haqiqatdan ham shariatga asoslangan islomiy moliyalash vositalarimi yoki hiylalarmikan, degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Islom moliyasi O‘zbekistonda. Albatta, islom banklari O‘zbekistonga ham kirib kelishi va o‘zining xizmatlarini bizning yurtimizda ham targ‘ib qilinishi uchun bir qator strategik maqsadlarni qo‘yish va shunga muvofiq tarzda muammolarni bartaraf etish lozim. Shuning uchun ham yurtimizda bank kredit tizimini yanada takomillashtirish vaasosan foizli kreditlarni kamaytirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrdagi parlamentga murojatnomasida “Islomiy Tijorat banklari” yurtimizda o‘z faoliyatini boshlashini ta’kidlab o‘tgan edilar va shu munosabat bilan O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini tashkil etish bo‘yicha takliflar o‘ranilmoqda.Yurtimizda Islom diniga e’tiqod qiluvchilar ko‘pchilikni tashkil qilishiga qaramay shu paytgacha O‘zbekistonda islom moliyasi sohasi deyarli rivojlanmagan.

Vaholanki bu soha rivojlanishiga mamlakatimiz juda kata salohiyatga ega va bu yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlari ekspertlari tomonidan ham tan olingan. Jumladan, Islom Taraqqiyot Banki(IsDB), Xususiy Tarmoqni Rivojlantirish(ICD), Xalqaro islom savdo moliya korporatsiyasi(ITFC), Islom tadqiqotlar va treninglar instituti(IRTI) islom moliyasini rivojlantirishda hozirgi kunga qaradar mamlakatimizga 2 milliard AQSH dollaridan ziyod mablag‘larni yo‘naltirganlar. Biznes vakillari tomonidan Islom moliyasiga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida O‘zbekiston 2003 yilda IsDB ga va 2004 yilda ICD ga a’zo bo‘ldi va bu islom moliyasining O‘zbekistonga kirib kelishiga zamin yaratdi. 2019 –yilda birinchi bo‘lib islomiy sug‘urta kompaniyasi faoliyatini boshladi, MDH davlatlarida birinchilardan bo‘lgan elektron

Murobaha –savdo bitimi asosida moliyaviy mahsulot platformasi ishlab chiqildi.Mamlakatimiz yaqin qo'shnisi bo'lgan Tojikistonda tashkil etilgan Tavhidbanki bu yerdagi ilk islom moliyaviy banki hisoblanadi. Mazkur bank 1999-yil 24-avgustda “Tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash aksiyadorlik tijorat banki” sifatida ta'sis etilgan bo'lib, 2002 yil 22-mayda "Sohibkorbank" nomi bilan qayta tashkil etilgan. Bank tashkil topgan kundan boshlab mamlakat moliya xizmatlari bozorining faol, ishonchli va barqaror ishtirokchisi sifatida tanilgan. 2019 yil 1-iyuldan bank nomi "Tavhidbank"ga o'zgartirildi va 2019 yil 16-sentyabrdan boshlab Tojikistondagi birinchi Islom banki sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Bankning sof foydasi 4,3 million so'mni tashkil etdi. Moliyaviy portfelning sof daromadi o'tgan yilga nisbatan 370 foizga o'sdi. Komissiya daromadi, asosan, hisob-kitob operatsiyalari va kafolatlar hisobiga 20 foizga o'sdi. 2021-yil 30-noyabr holatiga ko'ra, kapital o'tgan yilga nisbatan 21 foizga ko'payib, 110 million so'mni tashkil qildi. Bank aktivlari 32 foizga o'sgan holda 181 million so'mni tashkil etdi. Bankning moliyalashtirish portfeli 155 foizga oshib, 23 million so'mni tashkil etdi.Mening fikrimcha, O‘zbekistondagi xalqaro islom tashkilotlari, ta’lim muassasalari, islom bank moliya muaassasa va tashkilotlari o‘zlarining tor milliy doirasidan tashqariga chiqishi va islom moliyasini muvaffaqiyatli joriy qilgan davlatlar tajribasini o‘rgangan holda, moliya bozori ishtirokchilari orasida keng targ‘ib qilishi va shu orqali islom moliyasi mohiyatini tushunib yetishi darajasini oshirish zarur. Islom bankchiligini tashkil etish orqali, ko‘pchilik qismi musulmon bo‘lgan davlatlarda, samarali faoliyat yuritish va davlat iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatish mumkin.O‘zbekistonda islom moliyasini tashkil qilish bo‘yicha uchun quyidagilar yechim bo‘lishi mumkin:

-Avvalo mamlakatimizda markaziy islom bankini tashkil etish;

-Mukammal bo‘lgan huquqiy va siyosiy bazani yaratish;

-Islom banklarida shariy kengashlarni va turli xalqaro muvofiqlashtiruvchi markazlar tashkil qilish;

-Islom bank moliya tizimini joriy etgan va islom moliyasini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratgan mamlakatlarning muvofiqlashtiruvchi tashkilotlari bilan keng ko‘lamli sherikchilik aloqalarini bog‘lash.Albatta ishonamizki, islomiy bankning tizimini mamlakatimizga kirib kelishi natijasida O‘zbekiston MDH davlatlari o‘rtasida yetakchilik qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytsak, islomiy bankning xizmatlar sohasi yurtimizning porloq kelajagi uchun muhim shart sharoitlar yaratib, poydevor va yanda rivojlanish istiqboli bo‘ladi. Hamda mana shu ishlarning natijasida, O‘zbekiston madaniyatida islomning chuqur ildizlari aks etgan mamlakat hisoblanib o‘z jozibadorliligi bilan xorijiy investorlarni yanda ko‘proq jalb qila oladi. Bu imkoniyat orqali davlatimiz aholi farovon hayoti barqaror rivojlanishiga katta qadamlarni qo‘ya oladi desak adashmaymiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Беккин Р.И. Исламские финансовые институты и инструменты в мусульманских и немусульманских странах: особенности и перспективы развития. / Автореф. дисс. докт. экон. наук., 2009. – 48 с.

2. Исхаков И.Р. Операционная структура исламского финансового института, ориен тированная на реализацию долевых методов // Актуальные проблемы экономики и права. – 2014. – № 2(30). – с. 12-16. 4. Кузнецова Т. Исламский банкинг: особенности кредитования инвестиционных проектов // Финансовая жизнь. – 2015. – № 2. – с. 22-25.

3. Bekmurodov, A. A. “Kichik biznes sub‘ektlarini tijorat banklar tomonidan kreditlashda xorij tajribasi” Теория и практика современной науки 6 (96) (2023): 20-24.

4. Bekmurodov A. The impact of transformation processes on the activities of commercial banks //Archive of Conferences. – 2021. – С. 52-54.